

ASHURALI ZOHIRIY PUBLISISTIKASIDA TIL-IMLO MASALASIGA DOIR
TARIXIY JARAYONLARNING YORITILISHI

Mirzamidinova Shahnoza Abidinovna

Angren universiteti "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi,

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi mustaqil izlanuvchisi

Komilova Zumradxon

Angren universiteti MIG' 23-3 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15342585>

Annotatsiya: Til va imlo masalalari ham doimo jadidlarning diqqat-markazida turib, millat va mamlakat xavfsizligi darajasida himoya qilindi, milliy tilga bo'layotgan tahdidlarga qarshi qattiq kurashildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon va yana boshqa ko'plab taraqqiyparvarlar milliy til va imlo haqida oz' davri uchun (hatto bugungi kunda ham – Sh. Mirzamidinova) dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan yuzlab maqolalarni e'lon qildilar.

Turkiston milliy matbuotida ko'plab maqolalarning e'lon qilinishiga sabab o'zbek tilining ikkinchi darajali tilga aylanib qolganligi edi. Tarixchi olim D.Jamolovanning yozishicha bunga bir tomondan Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlaka qilinishi sabab bo'lgan. Ikkinchi sabab sifatida keltirishimiz mumkinki, Turkiston xalqining o'zi ham (jadidlarning milliy matbuot sahifalaridagi chaqiriqlaridan sezilishicha – Sh.Mirzamidinova) tilga nisbatan "beparvolik kasaliga" uchragan.

Kalit so'zlar: Chor imperiyasi, jadid maktablari, yangi-usul maktablari, no'g'ay maktablari, moddiy-texnik baza, "Hayot maktabi", "Miftoh ul-alifbo", "Tahsil-ul alifbo", darslik va qo'llanmalar, "Irfon" (Ilm) maktabi.

Annotation: The issues of language and spelling have also always been in the center of attention of the Jadids, they defended themselves at the level of national and national security, and fiercely fought against the growing threats to the national language. Mahmudhoja Behbudi, Munavvarkari Abdurashidkhanov, Haji Muin, Abdulla Kadiri, Abdulhamid Chulpan and many other progressives have published hundreds of articles about the national language and spelling, which are important for the era.

The reason for the publication of many articles in the national press of Turkestan was that Uzbek became a second language. Historian D. Jamalova writes that this was caused, on the one hand, by the colonization of Turkestan by the Russian Empire.

The second reason is the Turkestan people themselves, who suffered from "inattention" to the language.

Key words: Czar empire, modern schools, innovative schools, nogay schools, material and technical base, "School of Life", "Miftoh ul-alifbo", "Tahsil-ul alifbo", textbooks and manuals, "Irfon" (Science) school.

Garchi, olib borilgan mashaqqatli izlanishlar va o'tkir siyosiy talablar natijasida Sovet hokimiyati tomonidan 1921-yilda Turkiston taraqqiyparvarlari orzu qilganlaridek o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, biroq bu qonun amalda ishlamadi, hukumat idoralaridagi yozishmalar va o'zaro rasmiy muloqot rus tilida olib borilaverdi. Kechayotgan bunday murakkab jarayonlarda Ashurali Zohiriy ham o'zbek tilining jonkuyari o'laroq chetda turishi mumkin emas edi

Ashurali Zohiriyning til masalasidagi eng birinchi hayqirig'i "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 13-aprel sonida bosilgan "Ona tili" maqolasi edi.

Ashurali Zohiriy maqolasining kirish qismida bir millatning o'z tilidagi kitob, risola, gazeta, jurnal, va boshqalarga bir so'z bilan adabiyot (literatur) deyilishini, shu boisdan ham arabcha kitob va risolalarga "adabiyot arabiya", turk, tatar tillaridagilarga, "turk adabiyoti" hamda "tatar adabiyoti" deyilishi urg'ulab, dunyoda yashab turgan har bir millatning ilmda ayni damda va boshqa jihatlarida qaysi darajada ekanligi adabiyot bilan o'lchaliniib, adabiyoti boy bo'lgann millat tomonlama oldinda va yuqorida e'tibor qilinishini, aksincha adabiyoti rivojlanmagan bo'lsa u millatning boshqa millatlar oldida hurmat va e'tibori bo'lmasligini, shuning uchun bunday millat turli-tuman madaniyat va faol ijtimoiy hayotdan bahra ololmasligini urg'uladi.

Ashurali Zohiriy Turkiston xalqida adabiyotga e'tibor XX asr boshlariga kelib nihoyatda sustlashib ketganligini, bunga sabab qilib u ona tiliga nisbatan millatda hurmat va e'tiborning susayib ketganligi bilan izohlaydi: "Nechukki, olimlarimizdan biri biror yerg'a xat yozsa yoki birovga bergan narsasini xotira daftariga yozsa, o'z ona tilini qo'yib fors tilida yozadurlar. Hammasidan ham zararlari buldurki: yangi dars o'qumoqqa boshlag'on, o'z ona tilini ham durustlab bilmaydurgan bir shogirdga dars berganlarida forscha tarjima bilan o'rgatadurlar. (Ul turkiy sarf, turkiy nahv o'qutmoqni onda qo'yaylik). Hech bo'lmaganda o'shal arabcha sarf, nahvni turkiy tiliga tatbiq qilib, ya'ni, aning keraklik o'rinlariga tildan misollar ko'rsatib aytib bersalar, arabchaga ham zehni kirishib, buning barobarida o'z ona tilini ham bir narsaga yaraydurg'on til ekanligini bilib ona tiliga muhabbat bir daraja ortib, tartibga solib borur edi. Halo ul qanda? (Hozir qanday?) Yosh o'smirlarimiz bo'lsalar o'z yerliklaridan birini ziyofatga chaqirib xat yozsalar ham usmonicha, yoki tatarcha yozadurlar. Boydagi (vaholanki) ona tiliga muhabbat va islohn ulardan kutular erdi. Bularning sababi ham ravshandur-ki birinchilari: o'zlarining eron adabiyoti ta'siri bilan nurlangan bo'lsalar, ikkinchilari: tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochgandurlar. Shuning uchun har ikki sinf ham o'zlarining "nur" olg'on taraflariga qarab tortadurlar-da o'z ona tillariga haqorat nazari bilan boqib kundan kun esdan chiqarmoqqa boshlaydurlar"¹.

Ashurali Zohiriy boshqa xorijiy tillarni xuddi Behbudiydek Turkiston yoshlari o'qishi, o'rganishi lozimligini ta'kidlash bilan birga, biroq undan avval eng birinchi bo'lib ona tilini puxta egallashlari lozimligini, o'z navbatida ona tilini mukammal bilishlik boshqa chet tillarini ham mukammal o'rganishlikka asos bo'lib xizmat qilishligini uqtiradi: "Durust forsiycha, arabcha, o'ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas juda yaxshi bilaylik, lekin o'z ona tilimizni hammasidan ortuq va ziyodaroq bilaylik. Sarf va nahvlari bilan bilaylik va ham shundog' bo'lg'onda arabcha, forscha va boshqalariga tushunurmiz. Chunki o'z tilimizni yaxshilab bilmadikmi boshqa tilni albatda durust bilmaymiz va buni hijriy 900-nchi yilda undan ilgariroq ham "Mavlono Lutfiy", "Alisher Navoiy"dek zotlar vujudga kelib qirg'a yaqin asarlari bilan ona tilimizning boshqa tillarga nazran (qaraganda) boy ekanligini, she'rdan berilg'on jozibasini, musiqa (muzika) da bo'lg'on latofatini, "Me'zon ul avzon" va "Muhokamatul lug'atayn" lari bilan bildurg'on erdilar"².

Shuningdek, Ashurali Zohiriy ushbu maqolasida "Turkiyni do'st tutqon kishi jug'rofiyani o'qib ko'rub Turkiyaning shuncha yerlari qo'ldan chiqib ketganiga yuragi yonib joni

¹ Ashurali Zohiriy. Ona tili // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.

² Ashurali Zohiriy. Ona tili // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.

siqilganidek, ona tilig'a muhabbati bor kishi ham Alisher Navoiy asarlarini o'qib ko'rganda tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki ul latofat, ul nafosatlarini yo'qotib kishi tanimaydurg'on bir holg'a kelturib qo'ydik deb ohlar tortur. Nechukki har bir insonning jonidan aziz narsasi din va millatidir. Ul din va millatni muhofazati ham har afrodi insong'a vojibdur. Uning muhofazati ona tilining muhofazati bilan bo'lur. Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo'qotur"³ deb yozgan holda, milliy tilni himoya qilishlik, asrab-avaylash davlatchilikni himoya qilish ekanligini, mamlakatning chegaralari himoya qilinganidek, tilning ham o'z himoya qilinadigan muqaddas chegarasi borligini Turkiya misolida urg'ulab, Turkiston xalqi ham Alisher Navoiydan ancha uzoqlashib ketganligini afsus bilan qayd etib o'tadi.

Ashurali Zohiriy mustamlakachi hukumat tomonidan tatar xalqida olib borilgan tilga qarshi siyosatga qaramay, ushbu millatning til va adabiyoti o'tmishdagi sof tatar tili va adabiyotida farsaxlarcha uzoqlashib ketganligini, turli xil yangidan yangi so'zlar bilan boyib borganligini, agar Turkiston ziyolilari va xalqi ham Chor ma'murlari tomonidan amalga oshirilayotgan assimilatSION siyosatga befarq qarasa, tilni matbuot orqai himoya qilishga harakat etmasa tez orasa turkiy til va adabiyotining ahvoli o'z tilini yo'qotgan millatlar singari katta o'zgarishlarga ro'baro bo'lishligidan ogohlantirdi, hamda milliy matbuotni ona tilini himoya qilishga chaqirdi: "Tatar qarindoshlarimizning hozirdag'i til va adabiy yotlarini bundan o'n, o'n besh yil ilgari chiqqan adabiyotlarig'a tatbiq qilinsa, qiyos qabul qilmaslik darajada tafovutlar bordurkim, bul darajada ularning tillarini kengaymog'i milliy va ona tilidag'i g'azetalari bilan bo'ldi. Gazeta va jurnallarining dunyo ahvolidan va boshqa to'g'rilaridan xalqg'a xabar berib turmog'idan boshqa ulug' va ko'zg'a ko'rinmaydurg'on bir foydasi bo'lurki, ul ona tilining kengaymog'i va mukallashmog'idir. Buning birlan millat o'zini dunyoda borlig'ini bildirib, ona tilida o'qitmoq va ta'lim bermog' masalalari chiqqanda, o'zig'a ayrim tili borlar qatoridan hisoblanib, tili yo'qlar qatoriga kirib qolmas. Turkistonda chiqqan gazeta va jurnallar til to'g'risig'a hech bir iltifot qilmadilar va hali ham e'tibor etmaslar. Takror aytaman, gazeta ona tilig'a xizmat etsun! Vaqti kelganda millatini tili yo'qlar qatorida qoldirmasun!"⁴.

Ashurali Zohiriy keyinchalik Sovet hokimiyati hukmronlik yillarda ham milliy til va imloni himoya qilishdan to'xtamadi. Jumladan Zohiriy bit tilshunos olim o'laroq 1921-yilda Toshkentda o'tkazilgan "Til va imlo qurultoyida", 1922-yilda yana Toshkentda o'tkazilgan "O'zbek madaniyat va maorif xodimlarining qurultoyi"da, 1926-yil Bakuda tashkillangan "Turkologlar qurultoyi"da va 1927-yilda chaqirilgan hamda lotin alifbosini amaliyotga tadbiq etish masalasiga bag'ishlangan "O'rta Osiyo maorif xodimlarining qurultoyi"da faol ishtirok etgan.

Ayniqsa, Ashurali Zohiriyning sovet davriy matbuotidagi chiqishlari – garchi u davr siyosati bilan yuzaki tarzda hamkorlik qilgan bo'lsa-da – lekin qalban hamon taraqqiyparvar va millatparvar shaxs qiyofasini o'zida saqlab qolganligini ko'rsatadi. Biroq, jarayonning o'ta murakkab ekanligi, Turkiston xalqi asrlar mobaynida foydalanib kelgan eski imloni yangi aniqrog'i rus-krill imlosiga o'tkazish tashabbusini ilgari surayotgan sovet hukumatiga qarshi turishlik nihoyatda og'ir edi. Shunga qaramasdan Ashurali Zohiriy eski imloni qattiq turib himoya qildi.

³ Ashurali Zohiriy. Ona tili // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.

⁴ Ashurali Zohiriy. Ona tili // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.

XX asrning yigirmanchi yillaridagi bu murakkab tarixiy jarayonlar xususida Po'latxon Qayumov quyidagilarni xotirlagan: "Ashurali Zohiriy imloni o'zgartirishning tashabbuskori bo'lgan Qori Niyoziy⁵ bilan o'sha 1922-yildanoq chiqisha olmay kelar edi. U kishining "Agar yangi alifboga o'tsak, ajdodlarimiz bizlarni bir umr qarg'aydlar, bu bilan kelajagimizni madaniy jihatdan ko'r qilgan bo'lamiz" degani sira-sira esimdand chiqmaydi. Ahir men ham Zohiriy tarafdori bo'lganman"⁶. Ushbu xotira parchasidan yaqqol ko'rinib turibdiki, XX asr yigirmanchi yillarida til va imlo masalasida Turkiston ziyolilari ikkiga bo'lingan edi: jadidlar va sovet hokimiyati yetishtirgan yosh avlod ziyolilari. Keyinchalik, baribir ham Turkiston xalqi dastlab lotin, so'ngra krill alifbosiga o'tkazildi va bu ishda faol ishtirok etgan Qori Niyoziy 1941-yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti lavozimi bilan siylandi.

Ashurali Zohiriyning XX asr yigirmanchi yillaridagi til va imlo masalasiga doir qizg'in faoliyati doimo davriy matbuotning diqqat markazida bo'lgan. Chunki, bu davrga kelib Turkiston jadidlarining katta va yosh avlodi matbuot orqali til va imloni tartibga solish, milliyini himoya qilish borasida tez-tez maqolalar bilan ishtirok etib turish odatiy hol edi. Bunga misol o'laroq Abduraf Fitratning "Tilimiz"⁷, "Imlo masalasi"⁸, Shokirjon Rahimning⁹ "O'zbek imlosi to'g'risida asoslar"¹⁰, "Imlo havaskorlariga"¹¹, "Tilimizni bir qoida ostig'a olayliq"¹², Elbekning "Imlo masalasi"¹³, "Til"¹⁴, "Alifbo masalasi"¹⁵, Saidalixo'janing "Istiloqlar to'g'risidagi dokladimning mavzulari"¹⁶, Shapoq Mahzumning "Turk tili – davlat tili"¹⁷ hamda Ashurali Zohiriyning "Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza"¹⁸ nomli maqolalarni keltirib o'tish mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurali Zohiriy. Ona tili // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.
2. Toshmuhammad Niyozov Qori-Niyoz (1897-1970) — sovet o'zbek matematiki va fan tarixshunosi, akademik (1943) va O'zbek SSR fanlar Akademiyasi birinchi prezidenti (1943-1947). Fizika-matematika fanlari doktori. O'zbek SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1939). To'liq ma'lumot uchun qarang: <https://arboblar.uz/uz/people/kary-niyazov-tashmukhamed>

⁵ Toshmuhammad Niyozov Qori-Niyoz (1897-1970) — sovet o'zbek matematiki va fan tarixshunosi, akademik (1943) va O'zbek SSR fanlar Akademiyasi birinchi prezidenti (1943-1947). Fizika-matematika fanlari doktori. O'zbek SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1939). To'liq ma'lumot uchun qarang: <https://arboblar.uz/uz/people/kary-niyazov-tashmukhamed>

⁶ Uzoqov H. Er kishi bitta gapiradi. – T.: "Cho'lpon" nashriyoti. 1996. – B. 19-20.

⁷ Fitrat. Tilimiz // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yil 12-iyul.

⁸ Fitrat. Imlo masalasi // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yil 27-avgust.

⁹ Shokirjon Rahim – (1898–1938) – ma'rifatparvar, taraqqiyparvar pedagog. To'liq ma'lumot uchun qarang: <https://oyina.uz/uz/article/1146>

¹⁰ Rahim Sh. O'zbek imlosi to'g'risida asoslar // "Qizil bayroq" gazetasi. 1922-yil 22-mart.

¹¹ Rahim Sh. Imlo havaskorlariga // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 18-mart.

¹² Rahim Sh. Tilimizni bir qoida ostig'a olayliq // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 7-yanvar.

¹³ Elbek. Imlo masalasi // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1920-yil 7-oktabr.

¹⁴ Elbek. Til // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1920-yil 21-mart.

¹⁵ Elbek. Alifbo masalasi // "Qizil bayroq" gazetasi. 1921-yil 20-fevral.

¹⁶ Saidalixo'ja. Istiloqlar to'g'risidagi dokladimning mavzulari // "Qizil bayroq" gazetasi. 1922-yil 31-yanvar.

¹⁷ Shapoq Mahzum. Turk tili – davlat tili. "Qizil bayroq" gazetasi. 1921-yil 27-oktabr.

¹⁸ Ashurali Zohiriy. Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza // "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yil 19-iyun.

3. Uzoqov H. Er kishi bitta gapiradi. – T.: “Cho'lpon” nashriyoti. 1996. – B. 19-20.
4. Fitrat. Tilimiz // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 12-iyul.
5. Fitrat. Imlo masalasi // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 27-avgust.
6. Shokirjon Rahim – (1898–1938) – ma'rifatparvar, taraqqiyparvar pedagog. To'liq ma'lumot uchun qarang: <https://oyina.uz/uz/article/1146>
7. Fitrat. Tilimiz // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 12-iyul.



INNOVATIVE
ACADEMY